

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»**  
Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
M.B. Kalonov

Ratibaga olindi: 2024 yil "09" oy "09" kuni

**KOMPARATIVISTIK PEDAGOGIKA**

**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim  
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim  
Magistratura  
mutaxassisligi: 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi

**NAVOIY-2024**

Fan/modul kodi KP2205	O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Komparativistik pedagogika	60	90	150
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – magistrantlarda turli mamlakatlar va mintaqalar ta'lim tizimini har tomonlama obyektiv, qiyosiy, tanqidiy tahlil qila olish, ta'limda va jahon pedagogikasida sodir bo'layotgan pedagogik jarayonlarni tadqiq eta olish va korreksiyalashning samarali usullarini aniqlab, to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish.</p> <p><b>Fanning oldiga qo'ygan vazifalari</b> -magistrantlarni xorijiy mamlakatlarda ta'limni rivojlantirishning real jarayonlarini aks ettiruvchi so'nggi va kam ma'lum bo'lgan faktlarning tizimli tavsiflash; ushbu mamlakatlarda ta'lim tizimlarini rivojlantirish bo'yicha miqdoriy ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish; turli mamlakatlarda ta'limni tizimini rivojlantirishning eng muhim qonuniyatlari va tendensiyalarini aniqlash va tahlil qilish; xorijiy mamlakatlarda ta'limning yutuqlari va kamchiliklarini O'zbekiston ta'lim tizimi bilan qiyoslay olishga o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-MODUL. "Komparativistik pedagogika" faninig nazariy asoslari</b></p> <p><b>1-mavzu. Komparativistik pedagogika bilimlar sohasi sifatida va fanning taraqqiyot bosqichlari.</b></p> <p>Komparativistik pedagogika fanining predmeti, vazifalari va tarkibi. Komparativistik pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Komparativistik pedagogika fanining asosiy funksiyalari, manbalari. Komparativistik pedagogika fani metodologiyasi va metodikasi rivojlanishining asosiy bosqichlari. XXI asr boshlarida dunyoda ta'limni rivojlantirish tendensiyalari va unlarni isloh qilish.</p> <p><b>2-mavzu. MDH davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari tahlili.</b></p> <p>MDH davlatlarining ta'lim tizimi bosqichlari; ta'lim modellari va konsepsiyalari. Turli mamlakatlardagi ta'lim olganlik darajasi, funksional savodsizligi, savodsizlikni oldini olish masalalari. Turli mamlakatlarda ta'lim</p>			

dasturlarining evolyusiyasi; ta'lim olish va o'qitishning differentsiatsiyasi va qiyosiy tahlili.

**3-mavzu. Sharqiy Osiyo davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari tahlili.**

Sharqiy Osiyo davlatlarining ta'lim tizimi bosqichlari; ta'lim modellari va konsesiyalari. Turli mamlakatlardagi ta'lim olganlik darajasi, funksional savodsizligi, savodsizlikni oldini olish masalalari. Turli mamlakatlarda ta'lim dasturlarining evolyusiyasi; ta'lim olish va o'qitishning differentsiatsiyasi va qiyosiy tahlili.

**4-mavzu. Yevropa davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari tahlili.**

Yevropa davlatlarining ta'lim tizimi bosqichlari ta'lim modellari va konsesiyalari. Turli mamlakatlardagi ta'lim olganlik darajasi, funksional savodsizligi, savodsizlikni oldini olish masalalari. Turli mamlakatlarda ta'lim dasturlarining evolyusiyasi; ta'lim olish va o'qitishning differentsiatsiyasi va qiyosiy tahlili.

**5-mavzu. YUNESKO, YUNISEF, Xalqaro rivojlanish bo'yicha AQSh agentligi (USAID), Jahon banki (World Bank) kabi xalqaro tashkilotlarining O'zbekiston ta'lim tizimidagi tutgan o'rni.**

UNESCO, UNICEF, USAID, World Bank kabi xalqaro tashkilotlarining O'zbekistondagi faoliyati. O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturining tahlili va tavsifi. EGRA/EGMA dasturining tahlili va tavsifi.

**6-mavzu. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) va Xalqaro energetika agentligi (IEA) xalqaro tashkilotlarning faoliyati va tavsifi. O'zbekistonda xalqaro baholash dasturlari bo'yicha tahlil.**

OECD va IEA kabi xalqaro tashkilotlarning faoliyati va tavsifi. PISA, PIRLS xalqaro baholash dasturlarining mohiyati. TIMSS, TALLIS xalqaro baholash dasturlarining mohiyati. Xalqaro baholash dasturlarining amalga oshirilishi bo'yicha prognostik tahlil (yuqori natija ko'rsatgan davlatlar misolida).

**7-mavzu. Xorijiy mamlakatlarda pedagoglarni tayyorlash tizimi.**

Xorijda o'qituvchi maqomi va pedagoglarning gender tarkibi. O'qituvchi shaxsiga va faoliyatiga qo'yiladigan talablar. Chet elda o'qituvchilarni tayyorlashning asosiy tendensiyalari. Turli mamlakatlarda pedagoglarni tayyorlash tizimi. Xorijda o'qituvchilarning malaka oshirish tizimi.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalari bosil qilinadi.

**"Komparativistik pedagogika"** fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Komparativistik pedagogika fanining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari
2. Xorijiy mamlakatlarda masofaviy ta'limning xususiyatlari va tahlili.
3. OECD va IEA xalqaro tashkilotlari faoliyati va tahlili.
4. PISA, PIRLS, TIMSS, TALLIS xalqaro baholash dasturlari tahlili
5. O'zbekistonda ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar faoliyati tahlili.
6. AQShda pedagoglarni tayyorlash tizimi.
7. Rossiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.
8. Qozog'iston ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.
9. Turkiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.
10. Yaponiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.
11. Xitoy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.
12. Janubiy Koreya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.
13. Singapur ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.
14. Buyuk Britaniya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.
15. Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**

*Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:*

1. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan nodavlat ta'lim muassasalari tahlili.
2. O'zbekistondagi Erasmus+ xalqaro tashkilotining faoliyati tahlili.
3. QS World University Rankings tashkilotining jahon OTM reytingi tahlili.
4. Finlyandiya ta'lim tizimi – dunyoda eng yetakchi.
5. Shvesiya davlati ta'lim tizimi tahlili.
6. Belgiya davlati ta'lim tizimi tahlili.

	<p>7. Turli mamlakatlarda ta'lim tizimida davlat va nodavlat sektorlari tahlili.</p> <p>8. AQSh da pedagoglarni sertifikatsiyalash va litsenziyalash tizimi.</p> <p>9. Rivojlangan mamlakatlarda pedagoglarni tayyorlash tizimi.</p> <p>10. Masofaviy ta'limning zamonaviy tendensiyalari</p>
3.	<p><b>V. Fanni o'qitishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• fikrlash madaniyati, axborotlarni idrok etish, tahlil etish va umumlashtirish, maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini tanlash layoqatiga egalik;</li> <li>• jahonda ta'lim rivojining zamonaviy bosqichiga xos tendensiyalar va o'ziga xosliklar haqidagi bilimlarga egalik; o'qitish, tarbiya va ijtimoiylashuv jarayonida uchraydigan turli (ijtimoiy, madaniy, milliy) kontekstlarni hisobga olish;</li> <li>• tarfa madaniyatli ta'lim muhiti sharoitida ta'lim jarayoni subyektlarining o'zaro birgalikdagi harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;</li> <li>• dunyoqarashga doir, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli falsafiy muammolarni tahlil etish qobiliyati;</li> <li>• ta'lim sohasidagi kasbiy faoliyatning aksiologik asoslarini bilish; kasbiy manbalarga doir axborotlar bilan ishlash usullarini egallaganlik.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• interfaol ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi;</li> <li>• modulli ta'lim texnologiyasi;</li> <li>• muammoli ta'lim texnologiyasi;</li> <li>• kooperativ ta'lim texnologiyasi;</li> <li>• refleksiv ta'lim texnologiyasi;</li> <li>• art-texnologiyalar;</li> <li>• veb-kvest;</li> <li>• chizma-tasviriy modellar ( mantiqiy graf, freym modeli, tayanch konspekt, semantic tarmoq, intellekt karta)</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda muntazam qatnashish; muozaralar va o'quv konfrensiasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish;</li> <li>• joriy va oraliq nazorat topshiriqlarini bajarish;</li> <li>• mustaqil ish topshiriqlarini bajarish;</li> <li>• yakuniy nazorat topshirish.</li> </ul>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>I. Вулфсон Б.Ф. Сравнительная педагогика. Учебное пособие.-М.: "Просвещение" 2004</p>

2. G'aniyev J.G'. Xorijda ta'lim. T.: Sharq, 1995.
3. M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev "Qiyosiy pedagogika" Darslik Toshkent-2015
4. Hoshimov K. Nishonova S. Pedagogika tarixi O'quv qo'llanma T.: A.Navoiy nomidagi O'zb. Mill kutubxonasi nashri. 2005.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-637, 23.09.2020 y.
2. Sh. Mirziyoyev «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak». Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar T.: «O'zbekiston» - 2017 yil.
3. Mirziyoev Sh.M Qonun ustivorligi inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. Toshkent: "O'zbekiston".2017
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017 y.
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021 y
6. Sh.S.Shodmonova, P.S.Ergashev. Qiyosiy pedagogika. Metodik qo'llanma-T.,2005y

#### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING FARMONI

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 - noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni.
3. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 -sonli Farmoni.

#### Axborot manbaalari

1. [http:// www. edu. Uz](http://www.edu.Uz)
2. <http://www.uzedu.Uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. [www.pedagog.Uz](http://www.pedagog.Uz)
5. [www.ziynet.Uz](http://www.ziynet.Uz)

7.	Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024-yil "0" <i>slatyabi</i> "1"-son Qarori bilan tasdiqlangan.
8.	<b>Fan/modul uchun mas'ul va dastur muallifi:</b> <b>Fan/modul uchun mas'ul:</b> D.H.Narziqulova - NavDPI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining professori
9.	<b>Taqrizchilar:</b> Axatova Durдона Aktamovna- NavDPI "Umumiy pedagogika va psixologiya" kafedrasining dotsenti, p.f.n. A.M.Pulotov-Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Kafedra mudiri



D.X.Umurzoqov

№ PP-107/M